Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI FONETIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Dilshodaxon Xalimova*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ xalimovadilshoda8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarning fonetik kompetensiyasini didaktik vositalar yordamida takomillashtirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda fonetik kompetensiyani shakllantirishda qo'llaniladigan uch asosiy metod – audiolingual , kommunikativ, fonetik metodlarning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro manbalar, tajriba-sinov uchun tuzilgan statistik model, jadval va maxsus dizayndagi infografik rasm asosida didaktik vositalarining afzalliklari, metodik cheklovlari hamda ulardan unumli foydalanish shartlari ko'rsatmalari beriladi.

Kalit so'zlar

fonetik kompetensiya, audiolingual metod, intonatsiya, talaffuz, urg'u, xorijiy tillar, kommunikativlik, chatbot, speaking, listening, writing, feedback, pedagogik texnologiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743511

Kirish

Fonetik ko'nikmalarni samarali shakllantirish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Didaktik materiallar ta'lim jarayonining mazmuni va maqsadiga xos ishlab chiqilgan vosita bo'lib, ular talabalarga to'g'ri talaffuz, fonematik eshituv, urg'u, ritm va intonatsiya singari fonetik kompetensiya tarkibiy qismlarini takomillashtirishga o'z qissasini qo'shadi.Mazkur materiallar nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan bog'lashda ko'prik vazifasini bajaradi. Audioyozuvlar, videomateriallar , fonetik mashqlar, dialoglar, va raqamli axborotga asoslangan interaktiv activitilardan foydalanish talabalarning foneti ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar talaffuzdagi xatolarni aniqlashga, ularni bosqichma – bosqich bartaraf etishga , talabalarning erkin fikrlay olish imkoniyatini beradi. Shuni takidlash joizki, didaktik materiallarni tizimli va maqsadli qo'llay olish ta;lim jarayonining samaradorligini oshiradi, hamda talabalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Tadqiqodning maqsadi va vazifalari

Maqolaning maqsadi didaktik vositalar yordamida talabalarga ingliz tilidagi fonetik kompetensiyani rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Didaktik vositalarning ingliz tili ko'nikmalariga ta'sir e'tish metodikasini o'rganish; talabalarda eng ko'p uchraydigan kamchiliklarni aniqlash ;tajriba – sinov statistic modeli asosida kommunikativ ko'rsatkichlarni tahlil qilish; ularni jadval va diagrammalar orqali ifodalash; didaktik vositalardan foydalanishda o'qituvchining modernizatsiyasi hamda qo'llash prinsiplarini belgilash.

Metodologiya

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida fonetik kompetensiya – ya'ni to'g'ri talaffuz , urg'u va intonatsiyadan to'laqonli foydalanish – til egallashning markaziy jihatlaridan biri sanaladi. Fonetik jihatdan to'g'ri

va tabiiy nutq nafaqat tinglovchi uchun tushunarli bo'ladi, balki o'rganuvchining o'z fikrini ifodalashdagi ishonchini oshiradi.Shu tufayli , fonetikani mukammal va tuzimli o'rganish xorijiy til metodikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Zamonaviy til o'rganish nazariyasida kommunikativ yondashuv ustuvorlik qilayotgan bo'lsa-da, fonetik ko'nikmalarni shakllantirish ikkinchi darajada deb qaraladi. Bu esa talaffuzdagi xatolar, muloqotda tushunmovchiliklar, va eshitishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.Shu sababli, fonetikani o'rganishda didaktik yondashuvlar tanlovi, ularning lingvistik va pedagogik asoslari , hozirda talabalar ehtiyojlariga moslashuvchanligi alohida pedagogik mahoratni talab etadi.

Ushbu maqola xorijiy til fonetikasi o'rganishda qo'llaniladigan uch asosiy metod – audiolingual, kommunikativ, fonetik differensial yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil qilish, analiz qilish , afzallik – cheklovlari nazariyalarini o'rganishdan iborat. Audiolingual metod - og'zaki nutqni o'rgatish uslubi bo'lib, u nutq namunalarini takroriy tinglash va tallafuz qilishga asoslangan .

Asosiy xususiyatlari : DIALOG va YODLASH : dars jarayonida qisqa dialoglarni yodlash va ularni turli intonatsiyalardan bilan role play qilishdan iborat.

DRILLS (MASHQLAR) talabalar xatolarini tuzatish uchun takrorlash mashqlarini bajarishadi.9 so'zlarni almashtirish, qo'shish, o'zgartirish)

TARJIMADAN VOS KECHISH : ona tiliga tarjima qilish shart emas. Buning o'rniga talaba tilni visual yo kontekstual holat bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'lash lozim.

Buning natijasida talabalar chiroyli talaffuz , ravonlik , erkin fikr , konteksga moslashuvchanlik , ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlarga ega bo'ladi.

Kommunikativ metod - xorijiy tillarni o'rganishda talabaning shaxsiy muloqot qobiliyatini va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Bu didaktiv metodda qoidalar yodlash emas, balki til muhitiga moslashish, rolli o'yinlar, suhbat , autentik audio materiallardan foydalanish orqali erkin muloqotni shakllantirish ustunlik qiladi.

Fonetik – differensial metod - bu nutq vat il o'rganishda tovushlarni talaffuz ilish va ularni bir – biridan farqlashga qaratilgan individual yondashuv hamda differensial tahlilga asoslangan metod hisoblanadi.Ushbu metod talaffuzdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ro'l o'ynaydi. Fonetik – differensial – metod (FDM) talabaning nutqini tahlil qilib, segmental va suprasegmental xatolari aniqlanadi.Buning uchun Praat, ELAN yoki boshqa fonetik analiz vositalari qo'llaniladi.

Didaktik materiallar - nafaqat grammatik qoidalarni o'rganish yoki matn tarjima qilish bilan chegaralanib qolmaydi. Asosiy maqsadimiz talabaning real muloqotga kirisha olishi, fikrni erkin ifodalay olishi , suhbatdosh fikrini tinglab tushunishi hamda kommunikativ vaziyatga mos nutq strategiyasini tanlay olishidan iborat. Shu tufayli xorijiy tillarni fonetik kompetensiya speaking, listening, reading, writing, leksik-grammatik bilim, didaktik moslashuv va diskursiv muloqot ko'nikmalarining integratsiyalashgan tizimi sifatida qaraladi.

Didaktik vositalarining ta'lim jarayonida foydalanish xorijiy tillarni ayniqsa ingliz tilini o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Fonetik ko'nikmalarni shakllantirishda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni ajrata olish va adabiy me,yorlarga rioya qilish lozimdir. Buning uchun turli ko'rgazmali qurollar , tarqatma materiallar va didaktik o'yinlardan foydalanish muhim.Fonetik kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi didaktik vositalardan foydalanish mumkin:

- Interfaol metodlar ;
- Multimediali vositalar;
- Nutqni avtomatik tahlil qilish tizimlari ;
- Mobil ilovalar ;
- CAPT texnologiyasi;
- Gamifikatsiya;
- Tovushlar qutisi ;
- Jadvallar va sxemalar .

Maqolaning maqsadi didaktik materiallar yordamida talabalarning fonetik kompetensiyasini rivojlan-

tirishning metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Didaktik vositalarining fonetik ko‘nikmalariga ta’sir mexanizmini aniqlash; talabalar faoliyatida eng ko‘p qo‘llanadigan vositalarni guruhlash; tajriba-sinov statistik modeli asosida kommunikativ ko‘rsatkichlardagi o‘sishni jadval va diagrammalar orqali ko‘rsatish; didaktik materiallardan foydalanishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, tizimli o’quv dasturi va baholash mezonlarini belgilash.

Maqolada tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-pedagogik va statistik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Statistik qism real auditoriyada qo‘llash mumkin bo‘lgan tajriba-sinov modeli sifatida ishlab chiqildi. Modelda 50 nafar talaba shartli ravishda kuzatuv obyekti sifatida olinib, 4 haftalik didaktik vositalar asosida yaratilgan o’quv dasturi asosida mashg‘ulotlar o’tkazildi va keyin fonetik kompetensiya ko’nikmalari lari baholandi. Baholash 100 ballik mezon asosida speaking and listening ko‘rsatkichlari bo‘yicha olib borildi. Ushbu raqamlar konferensiya maqolasi uchun metodik-namunaviy statistik model sifatida berilgan bo‘lib, amaliy tadqiqotda real diagnostika natijalari bilan almashtirilishi mumkin.

1-jadval. Didaktik vositalarning fonetik ko‘nikmalariga ta’siri

Ko’rsatkichlar	Pro- test	**Pro- test**	**Pedagogik natija**
Mustaqil fonetik tahlil bajarish tezligi	60 %	**78 %**	**18%**
Mustaqil fikrlash va vaziyatga moslashish darajasi	61%	**75%**	**14 %**
Tovushlarni to’g’ri talaffuz qilish ko’nikmasi	68%	82%	14 %
So’zning fonetik tahlilini bajarish darajasi	65%	78%	13 %
Nutq ravonlig va tallaffuz madaniyati	70%	84%	15 %
Dars jarayonida faol ishtirok etish darajasi	72%	84.6 %	16 %

Natijalar va tahlil

Tadqiqod natijalari shuni ko‘rsatadiki, fonetik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Xususan, CAPT texnologiyasi hamda gamifikatsiya elementlarining qo’llanilishi talabalarning nafaqat talaffuz balki ularning mustaqil fikrlash va analiz qilish qobiliyatini ham birdek faollashtirgan.

Olingan tahlillar shuni ko’rsatadiki , fonetik kompetensiyani shakllantirish faqatgina lingvistik bilimlar doirasida emas, psixologik , metodik jarayonlar bilan izchil bog’liqdir. Talabalarda fonematik idrokni oshirish uchun ularning diqqat markazi, eshitish qobiliyatini hamda analitik fikrlash darajasini didaktik vositalar bilan amalga oshirish mumkin. Bu esa didaktik mashg’ulotlarni tizimli va bosqichma – bosqich tashkil etish zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

Shuningdek, 4K modeli asosida tashkil etilgan darslar (kreativlik ,kritik fikrlash, kolloboratsiya, kommunikativlik) talabalarda fonetik faollik va o’zaro hamkorlik madaniyatini ham shakllantirishga yordam beradi.

Muhokama

Didaktik vositalardan foydalanish samaradorligi faqat materiallarning mavjudligi emas, balki uni metodik jihatdan to’g’ri integratsiya qilishga ham bog’liq. ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali pedagogik resurs bo‘lib xizmat qiladi. Ular talabaga real muloqotga yaqin vaziyatlarda mashq qilish, xatolarni tez aniqlash, yozma va og‘zaki nutqni tahlil qilish, individual feedback olish hamda mustaqil o‘rganish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Statistik model natijalariga ko‘ra, AI vositalaridan tizimli foydalanish speaking, listening, writing va reading ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘sishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, AI vositalaridan foydalanishda akademik halollik, ma’lumotlarning ishonchliligi, o‘qituvchi nazorati va baholash mezonlarining aniq belgilanishi muhim hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda real eksperimental guruhlar asosida diagnostik testlar, suhbat tahlili, yozma ishlar portfeli va CEFR mezonlariga tayangan holda chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO.

2. British Council. (2024). Artificial intelligence and English language teaching: Systematic review. London: British Council.

3. Microsoft Education. (2025). AI in Education Report: Insights to support teaching and learning. Microsoft.

4. Crompton, H., & Burke, D. (2024). Artificial intelligence in higher education: The state of the field. International Journal of Educational Technology in Higher Education.

5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.

6. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

7. Godwin-Jones, R. (2022). Partnering with AI: Intelligent writing assistance and instructed language learning. Language Learning & Technology, 26(2), 5–24.

8. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-assisted language learning and AI-supported feedback in language education. ReCALL, 32(3), 1–15.

9. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press.